

**BOSHLANG'ICH SINIF ONA TILI TA'LIMIDA O'QUVCHILARNING
MUSTAQIL ISHLARINI TASHKIL QILISH METODIKASI****Farmonova Shabon Muxamadovna,***Buxoro davlat universiteti pedagogika kafedrası
dotsenti, pedagogika fanlari doktori (DSc)***DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.18932649>

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada boshlang'ich sinf ona tili ta'limida o'quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etishning nazariy asoslari, didaktik tamoyillari tahlil qilinadi. Mustaqil ishlarining turlari, ularni bosqichma-bosqich tashkil etish modeli yoritiladi. Ayniqsa, o'z ustida mustaqil ishlashga o'rgatishda soddadan murakkabga qarab vazifalar berilsa maqsadga muvofiq ilmiy-amaliy jihatdan asoslab berilgan.*

***Kalit so'zlar:** mustaqil ish, boshlang'ich ta'lim, ona tili metodikasi, nutqiy kompetensiya, o'quv faoliyati, didaktik yondashuv.*

***Аннотация.** В данной статье анализируются теоретические основы и дидактические принципы организации самостоятельной работы учащихся в начальной школе на родном языке. Выделены виды самостоятельной работы и представлена модель их поэтапной организации. В частности, научно и практически обоснована цель обучения самостоятельной работе над собой, от простого к сложному.*

***Ключевые слова:** самостоятельная работа, начальное образование, методика преподавания родного языка, речевая компетенция, образовательная деятельность, дидактический подход.*

***Abstract.** This article analyzes the theoretical foundations and didactic principles of organizing independent work of students in primary school native language education. Types of independent work and a model of their step-by-step organization are highlighted. In particular, the purpose of teaching independent work on oneself, from simple to complex, is scientifically and practically justified.*

***Keywords:** independent work, primary education, native language methodology, speech competence, educational activity, didactic approach.*

Kirish. Jahonda til inson uchun borliqni anglash vositasi hisoblanadi. Maktab o'quvchisi tafakkurida ham, talaba tafakkurida ham olamning lisoniy manzarasi ona tili orqaligina shakllanadi. Bugungi kunda o'quvchilarning mustaqil ishlashga o'rgatish asosiy vazifalardan biriga aylangan. Boshlang'ich sinf ona tili va o'qish darslarida mustaqil ta'lim asosida o'qitish, ta'lim tizimining asosiy tamoyillaridan biri hisoblanadi. Mustaqil ta'lim o'quvchilarning ona tili ta'limidan o'qitish sohasidagi bilimlarini oshirishga, ularni mustaqil va ijodiy fikrlashga o'rgatadi. O'quvchilarning mustaqil ishlari ona tili ta'limining barcha bosqichlarida o'tkaziladigan, o'qituvchining bevosita ishtirokisiz, ammo uning ko'rsatmlari va rahbarligi ostida bajariladigan, o'quvchilarning ongli ravishda faoliyat ko'rsatishini ta'minlaydigan grammatik vazifalardir.

Boshlang'ich sinf ona tili ta'limida o'quv jarayonining samaradorligi ko'p jihatdan qo'llanilayotgan metod va topshiriqlarning ilmiy-metodik asoslanganligiga bog'liq. Xususan, o'quvchilarning o'quv-biluv faoliyatini faollashtiruvchi, ularni mustaqil izlanishga undovchi topshiriqlar tizimini ishlab chiqish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Chunki an'anaviy reproduktiv yondashuv o'quvchini tayyor bilimni qabul qiluvchi subyekt sifatida shakllantirsa, zamonaviy yondashuv uni faol ishtirokchi, mustaqil

fikrlovchi shaxs sifatida rivojlantirishni ko'zda tutadi. Ilmiy-pedagogik manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, ona tili ta'limida matn ustida ishlash, mustaqil ishlarni tashkil etish hamda o'quv-biluv topshiriqlarini tasniflash masalalari alohida yo'nalishlarda tadqiq etilgan. Biroq ushbu jarayonlarni o'zaro uyg'unlikda, tizimli va metodik asosda yoritish zarurati saqlanib qolmoqda. Ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda samarali metodik model ishlab chiqish ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Mamlakatimizda bir qator ona tili o'qitish metodikasiga doir ilmiy-metodik tadqiqotlar olib borildi. Mustaqillikning dastlabki yillarida H.Ne'matov, A.G'ulomov, R.Safarova va D.Yo'ldoshevalar ona tili ta'limi maqsadi va mazmunini yangilashning ilmiy nazariy asoslarini ishlab chiqdi. Shuningdek, Sh.Yusupova va T.G'aniyev kabilar o'z tadqiqotlarida ona tilini pedagogik texnologiyalar asosida o'qitishni targ'ib qilgan. A.G'ulomov, M.Saidov va N.Alavuddinovalar esa ona tili o'qitish orqali mustaqil ishlash, ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi ustida izlanishlar olib borgan. Mazkur dissertatsiyalar mazmunidan bugungi kunda davlat tili ta'limida keng foydalanish mumkin. Tadqiqotchi: A.Bobomurodova, T.Ziyadova, T.T.G'aniyev, M.Saidov, A.Hamroyev, K.Mavlonovalar ona tili ta'limi jarayonida talabalarning so'z boyligini oshirish imkoniyatlari, o'zining ona tili ta'limi jarayonida tafakkurni rivojlantiruvchi o'quv topshiriqlari va ulardan foydalanish metodikasiga doir ona tilidan mashq bajarish jarayonida talabani bilish faolligini oshirish masalalarini tadqiq qilgan.

Masalan, pedagogika fanlari doktori, professor A.G'ulomov mustaqil ishlarga shunday ta'rif beradi: "Mustaqil ishlar deganda biz, avvalo, o'qituvchining bevosita rahbarligida uyushtiriladigan hamda o'quvchilarning ona tilidan egallaydigan nazariy bilimlarini mustahkamlash va ko'nikmalarni takomillashtirishga xizmat qiladigan, ma'lum maqsadga qaratilgan faol ongli faoliyatni tushunamiz".

O.Roziqov esa ona tili darslarida qo'llaniladigan mustaqil ishlarni "o'qituvchining bevosita ishtirokisiz, ammo uning ko'rsatmalari va rahbarligida bajariladigan, nazariy-amaliy materiallar ustida uyushtiriladigan, o'quvchilarning ongli ravishda faoliyat ko'rsatishlarini ta'minlaydigan grammatik, orfografik vazifalar" sifatida tushunadi. Jumladan, S. Matchonov: "... mustaqil ishlar ta'lim-tarbiyaning ajralmas qismi hisoblanadi. Uning o'ziga xos xususiyati o'quv topshiriqlarining o'qituvchi ishtirokisiz, bevosita o'quvchi tomonidan bajarilishi bilan belgilanadi va asosan matn ustida ishlash orqali amalga oshiriladi, qo'shimcha adabiyotlardan samarali foydalanishni nazarda tutadi",- deb yozadi.

Bizningcha, mustaqil ishlar o'quvchilarning aqliy imkoniyatlarini namoyon qilishga imkon beradigan, o'qituvchining bilvosita va bevosita ishtirokida, ammo bevosita yordamisiz nazariy-amaliy materiallar ustida bajariladigan vazifalar bo'lib, o'quvchilarning nafaqat bilim darajalarini, balki ularning o'zlashtirgan bilimlarini amaliyotda qo'llay bilishlarini, mustaqil va mantiqiy fikrlash darajalarini aniqlash va

shakllantirish imkoniyatini beradigan ongli amaliy faoliyatdir.

Darslarda o'tkaziladigan mustaqil ishlar dars tipiga, dars jarayonining turli bosqichlariga, o'quv materialining mazmuniga bog'liq bo'ladi. Ona tilidan o'rganiladigan har bir mavzu, har bir orfogramma xarakteriga muvofiq mustaqil ishlar uyushtiriladi. Ona tili darslarida o'tkaziladigan mustaqil ishlarga quyidagi talablar qo'yiladi:


a) mustaqil ishlar pedagogik va psixologik tomondan asoslangan bo'lishi, o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlariga, bilimiga mos bo'lishi, o'quvchilarga tiini o'zlashtirishga qiziqtirishi lozim;



v) mustaqil ish hayotiy bo'lishi, o'rganilgan nazariy bilimlarni amaliy tatbiq etishning vositasi bo'lmog'i kerak.







Boshlang'ich sinflarda tashkil qilinadigan mustaqil ishlar hajmi va murakkabligi jihatdan quyidagi guruhlariga bo'linadi: **tayyorlovchi; yarim mustaqil yoki oraliq; natijasi matnga teng mustaqil ishlar.**

1. Tayyorlovchi mustaqil ishlar. Pedagogik psixologiyadan ma'lumki, boshlang'ich sinf o'quvchilari vazifalarni mustaqil bajarishga ancha qiynaladilar. Ular berilgan topshiriqlarni taqlid qilish yo'li bilangina bajara oladilar. Ilg'or pedagog o'qituvchilar birinchi sinfda dastlabki mustaqil ishlarni quyidagicha tashkil etishadi: avvalo ,o'qituvchi maktab ,undagi tartib qoidalari,sinxona va uni toza saqlash kerakligi,shuningdek o'quv qurollari bilan muaomala qilish,asrab –avaylash,ulardan to'g'ri foydalanish,partada o'tirish va ruchkani to'g'ri ushlab qoidalarini amaliy ravishda ko'rsatib o'rgatadi.O'quvchilar o'qituvchining har bir xatti-harakatini takrorlab o'rganadilar.Bu amaliy ishlar soddadan murakkabga qarab boriladi. O'quvchilar o'qituvchi rahbarligida tovush va harflarni bir-biridan ajratishni va uni turlarga bo'lishni ,tovushni bo'g'inga,bo'g'inni so'zga birlashtirishni o'rganadilar.

3-mashq. Matnda qo'llanilgan rasmlarni so'zlarga almashtirib, matnni o'qing.



Bizning  katta.  .

Bu qizil  . U  o'sadi. Bu xushbo'y  .
Ishkomda qop-qora  pishgan. Menga shirin  va  juda yoqadi. Bog'imizdagi mevalarni bobom bilan birgalikda parvarish qilamiz.

- Tasvirlangan mevalar nomini yozing.
- Olma, olxo'ri so'zlaridagi harf va tovushlarni tahlil qiling.

Bu mashq orqali o'quvchilar og'zaki matn tuza olish,undagi ayrim so'zlarni o'rniga to'g'ri qo'ygan holatda gaplarni o'qish ko'nikmalari shakllanadi.Matndagi ayrim so'zlarni tovush jihatdan tahlil qilishni o'rganadilar. O'quvchilarga tahlil qilishni o'rgatish maqsadida ularning diqqati aniq narsalarga tortiladi. O'qituvchi rasmni osa turib, (rasmda

daraxtlar, olma, nok, uzum, olxo‘ri, olcha kabi mevalar ifodalangan) o‘quvchilarga bunday topshiriq beradi: rasmni yaxshilab kuzating. Unda nimalar tasvirlangan? Ularning nomini eslang. Shirin va nordon mevalarning nomini bildiradigan so‘zlarni guruhlarga ajrating. O‘ylang, yana qaysi mevalar shirin va nordon bo‘ladi? Topshiriq bajarilgach, tahlil uchun “olma”, “olxo‘ri” so‘zi ajratiladi, bo‘g‘inlarga bo‘linadi, harf va tovush jihatdan tahlil qilinadi, ularni talaffuz qilishadi. Bularning bari keyingi murakkabroq vazifalarni bajarishlarida qo‘l keladi.

2. Yarim mustaqil yoki oraliq mustaqil ishlar. Mustaqil ishlarning bu turi yetaklovchi savollar, darslik topshiriqlari, tarqatma materiallar, ko‘rgazmali qurollardan foydalanish asosida bajariladi.



Masalan: O‘quvchilar bu mashqni bajarish jarayonida berilgan rasmdagi predmet, hayvon, mevalarning nomlarini eslashi va faqat ularning bosh harflarini birlashtirish orqali so‘zlarni hosil qilishlari mumkin. Keyingi bosqichlar esa so‘zni bo‘g‘inlarga ajratish, ular tarkibidan unilarni topishga qaratiladi.

O‘qituvchi doskaga «paxta» so‘zini yozib, o‘zakdosh so‘zlarni topishni buyuradi. O‘quvchilar «paxta», «paxtazor», «paxtachilik», «paxtagul», «paxtali» kabi so‘zlarni lug‘atdan topib yozadilar. Bu ishda «paxta» so‘zi yetaklovchilik vazifasini o‘taydi. 2-sinfda “Gapda so‘zlarning bog‘lanishi” mavzusi o‘tilganda quyidagicha mustaqil ish o‘tkaziladi:

Ayiqalar quyuq o‘rmonda yashaydilar.

1. Gapni so‘zlarga ajrating, har bir so‘zning so‘rog‘ini aniqlang.
2. Gaplardagi mazmunan bir-biriga bog‘liq so‘zlarni aniqlang.
3. Ularni chizmalar yordamida bog‘lang.

3. Natijasi matnga teng mustaqil ishlar. Hozirgi kunda ta‘lim har tomonlama ilgarilab borayotgan zamonda o‘quvchilar yanada murakkab topshiriqlarni bajara oladilar. Shu jihatdan, ona tili grammatikasi haqida bilimlar bilan birgalikda ijodiy diktant, bayon, insho kabi ish turlaridan mustaqil ish sifatida foydalanish mumkin. Bu ishlar hajmining kattaligi, bajarish uchun ko‘p vaqt va o‘rganilgan bilimlarni mustahkamlashni talab qilishi bilan mustaqil ishning oldingi turlaridan farq qiladi. Bunday mustaqil ishlarning oldingi turlaridan farqlash uchun ularga nisbatan “natijasi matnga teng mustaqil ishlar” terminini ishlatdik. Shunday qilib, ona till darslarida o‘tkaziladigan mustaqil ishlar

tizimi o'quv materialining mazmuni ,sinf o'quvchilarining tayyorgarlik darajasi, mustaqil ishni bajarish uchun ketadigan vaqtga ko'ra aniqlanadi.

Xulosa. Mazkur maqolada boshlang'ich sinf ona tili ta'limida o'quvchilarning mustaqil ishlarini **tayyorlovchi, yarim tayyor** hamda **natijasi matnga teng mustaqil ishlar** tarzida tasniflash ilmiy-metodik jihatdan asoslab berildi. Taklif etilgan tasnif o'quvchilarning bilish faoliyatini bosqichma-bosqich rivojlantirish tamoyiliga tayanadi hamda reproduktiv faoliyatdan produktiv va ijodiy faoliyatga o'tish mexanizmini izchil tashkil etishga xizmat qiladi.

Tayyorlovchi mustaqil ishlar o'quvchilarda zarur lingvistik bilimlar, elementar tahlil va kuzatish ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan bo'lib, ular keyingi murakkab nutqiy faoliyat uchun didaktik poydevor vazifasini bajaradi. Yarim tayyor mustaqil ishlar esa o'quvchining qisman mustaqilligini ta'minlab, yo'naltiruvchi topshiriqlar asosida mantiqiy fikrlash, tahlil qilish, taqqoslash va umumlashtirish kompetensiyalarini rivojlantiradi.

Natijasi matnga teng mustaqil ishlar o'quvchining mustaqil ravishda yaxlit nutqiy mahsulot yaratish faoliyatini ifodalaydi. Ushbu bosqichda o'quvchi til birliklarini ongli ravishda tanlaydi, mazmuniy va grammatik yaxlitlikni ta'minlaydi hamda og'zaki va yozma nutq orqali kommunikativ maqsadni amalga oshiradi. Bu esa nutqiy kompetensiyaning shakllanishi va rivojlanishida muhim omil hisoblanadi. Shu tariqa, ishlab chiqilgan tasnif boshlang'ich sinf ona tili ta'limida mustaqil ishlarni ilmiy asosda tizimlashtirish, ularni maqsadga yo'naltirilgan va natijador tarzda tashkil etish imkonini beradi. Mazkur yondashuv o'quvchilarning mustaqil fikrlashini, ijodiy salohiyatini hamda o'zini-o'zi boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirish orqali ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Asqarova M. va boshqalar .Kichik yoshdagi bolalar nutqini o'stirish. –T., 2001
2. Aydarova U.B, Yuldasheva D.Sh. Ona tili 1-sinf I qism –T., 2024
3. Boshlang'ich ta'lim jurnali № 2008/4
4. Hamroyev A.R. Ona tili ta'limida o'quvchilarning ijodiy faoliyatini loyihalashtirish. Ped. fan. dok... diss. –Toshkent: 2020. – 242 b; Mavlonova K. Ona tili fanini adabiyot fani bilan badiiy matn orqali integratsiyalab o'qitish metodikasini takomillashtirish. Ped. fan. fal. dok... diss. avtoreferati. – Toshkent: 2019. – 22 b.
5. Safarova R. va boshqalar. Savod o'rgatish darslari. –T.: Ma'naviyat, 2003.
6. Safo Matchonov, Xolida Gulomova, Sharofat Yo'ldosheva, Sharofjon Sariyev “Ona tili o'qitish metodikasi”.
7. Yusupova Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili darslarida talabalar tafakkurini o'stirishning ilmiy-metodik asoslari: Ped. fan. dok... diss. – Toshkent: TDPI, 2005. – 270 b; G'aniyev T. Ona tili bo'yicha mashqlar bajarish jarayonida talabalarning bilim faoliyatini faollashtirish. Ped.fan.nom... diss.